

XV-XVIII asrlarda Ispaniya

Usmonqulov Jaloliddin

+998883500103

usmonqulovjaloliddin178@gmail.com

Jo'lanov Norpo'lat Jamshid o'g'li

+998992672004

Jo'lanovnorpo'lat87@gmail.com

Annotatsiya: Dastlabki o'n yilliklarda Ispaniyani Damashqdan tayinlangan amirlar boshqargan. Lekin 755 yili Kordova amirligi amalda mustaqillikka erishib, 929 yildan uning hukmdorlarini xalif deb atashadilar. Arablarning Pirenay yarim orolida 20 yillik yurishlari natijasida shimoldagi Galitsiya va Asturiyadan tashqari barcha hududlar ular qo'l ostiga o'tdi.

Kalit so'zlar: *Rekonkista, barbarlar, mavrlar, remens, kutusiya, intestiya, arsiya, firma di spoli, kabalyeros, 'Muqaddas Ermandas', inkvizitsiya.*

Keyinchalik xuddi shu Galitsiya va Asturiyadan arablarni Ispaniyadan chiqarish harakati ispancha “**Rekonkista**”-“**qaytarib olish**” boshlandi. U deyarlik 8 asr davom etib, Ispaniyaning keyingi taqdirini belgilab berdi. Austiriya tog'laridagi Kordova jangida (718 yili) ispanlar arablar ustidan ilk g'alabaga erishadi.

Ispan xalqining arablar bilan uzoq davom etgan, ko'p asrlik kurashi Ispaniya davlatining tashkil topishida juda katta rol o'ynadi. Pirenuya yarim orolining arablardan qaytarib olinishi tarixiy adabiyotda rekonkista deb nom olgan. Ispan xalqlarining arab-mavrlarga qarshi olib borgan ozodlik kurashi bo'lgan keng ma'nodagi rekonkista VIII asrdan-boshlab, arablar yarim orolni istilo qilganlaridan keyinroq, ya'ni VIII asrdan, to XV asr oxirigacha davom etdi. XV asr oxirida arablarning Ispaniyadagi so'nggi yirik mulki hisoblangan Granada qo'ldan boy berildi.

Galitsiya, Asturiya, ispan markasi, bular tog'li, odam yurishi va yashashi qiyin hududlar bo'lib, arablarning bu yerlarni bosib olishga urinishi natijasiz chiqdi. Bu yerlar boshqa hududlardan ko'chib kelgan ispan qochoqlari bilan to'lib ketgan edi. Keyinchalik xuddi shu yerlardan rekonkista harakati boshlandi.

- 1) Rekonkista harakati VIII asrdayoq boshlangan edi. Ammo XI asrgacha bu harakat ispan kuchlarining tarqoq bo'lganligi va ularga qarshi jipslashgan xalifalik kuchlari turganligi sababli biror yutuqqa erisha olmadi. Rekonkistachilar 1031 yilda ummaviylar sulolasiga parchalanib, 23

ta tayplarga bo‘linib ketganidan keyin muvaffaqiyatga erisha boshladi. Bu harkatning markazlari Toledo, Kastiliya va Leon edi.

Kastiliya, Leon, Aragon va Navarraning birlashgan qo‘smini 1212 yilda Las-Navas de Talos jangida arablarni yengadi. Bu mag‘lubiyat arablar qudratini sindiradi. Shundan so‘ng arablarni Ispaniya hududidan ommaviy ravishda haydash boshlandi. Arablardan Kordova 1236 yili, Sevilya 1248 yili, Kadis 1262 yili qaytarib olinadi. XIII asrning II yarmidan keyin arablar qo‘lida faqatgina Granada qoldi, xolos.

Arablar Granadani to 1492 yilgacha o‘z qo‘llarida saqlab qoldilar, qirov Ferdinand tomonidan Granadaning olinishi arablarning Afrika shimoliga chekinishiga olib keldi. ***Rekonkista harakatining xronologik sanasi XI- XIII asrlarni o‘z ichiga oladi.*** Rekonkista harakati natijasida hozirgi Ispaniya hududida Kastiliya, Aragoniya va Portugaliya kabi mustaqil davlatlar tashkil topdi.

Ispaniyada rekonkista oqibatida XI asrga kelib, Leon, Kastiliya, Aragon kabi xristian davlatlari, Barselona grafligi, keyinchalik Kataloniya va Navarra qirolligini tuzilishiga erishiladi.

Rekonkistaning asosiy bosqichlari. Asturiya qirolligi VIII—IX asrlarda yarim orolning butun shimoliga va shimoli-g‘arbiga o‘z ta’sirini yoydi. X asr boshlarida asturiyaliklar janubga ham siljib bordilar, Leon shahri esa ularning asosiy markazi bo‘lib qoldi va butun Asturiya qirolligi Leon nomi bilan Leon qirolligi deb atala boshladi. X asrning ikkinchi yarmida— XI asr boshlarida Leon janubgacha kengayib, Duero daryosi havzasigacha cho‘zilib ketadi. Bu yerda juda ko‘p qasrlar-qal’alar — burglari bo‘lgan chegara viloyat tashkil topdi. Ana shu qasrlar nomidan olinib, yangi mamlakat Kastiliya deb ataldi. Burgos shahari Kastiliyaning asosiy shahari hisoblanardi.

1037 yilda Leon qirovi Kastiliyaning ham qiroli deb atala boshladi. XI asrning ikkinchi yarmida Kastiliyaliklar Taho daryosi havzasini bosi b oldilar. 1085 yili qirov Alfons VI Toledo shaharini istilo qildi. Bu yangidan istilo qilingan hudud, ya’ni Taho havzasi Yangi Kastiliya deb atala boshladi. Biroq XI asrda Yangi Kastiliyaning ahvoli hali ancha nomustahkam edi. 1086 yili, ya’ni Toledo istilo qilingandan keyingi yili Alfons VI ning o‘zi Zallak shahriga yaqin joyda arablardan qattiq zarba yedi.

Shimoli-sharqda joylashgan Navarra qirolligi IX asrda juda katta ahamiyatga ega edi. Bundan keyingi asrlarda u uncha kengaymadi. Ammo uning janubida ancha-muncha siyosiy o‘zgarishlar bo‘lib o‘tdi. IX asr oxirida Ispaniya markasidan yangi mustaqil mulk, Aragon grafligi ajralib chiqib, so‘ng XI asrda qirollikka aylandi. 1118 yili aragonliklar arablardan Saragosa shahrini tortib olib, uni Aragonning

poytaxti qildilar. 1137 yili Aragon Ispaniya markasi bilan birlashdi, Ispaniya markasi bu vaqtida Kataloniya yoki Barselona grafligi degan yangi nom bilan yurardi. Nihoyat, yarim orolning g‘arbida Portugaliya janubga tomon cho‘zilib ketgan edi. Dastlab bu ham graflik edi (u 1095 yillarda tashkil topgan edi), 1116 yilga kelib u ham qirollik bo‘lib oldi. Portugaliyaning poytaxti boshda Duero daryosining mansabidagi Oporto shahri edi, keyin 1147 yildan — Taxo daryosining mansabidagi Lissabon shahri poytaxt bo‘lib qoldi. Leon koroli hokimiyatidan xalos bo‘lgan Portugaliya qiroli Rim papasiga qaram bo‘lib qoldi. Ammo bu qaramlik nomigagina bo‘lib, aslida boshqacha edi.

Yarim oroldagi to‘rtta xristian davlatlaridan Navarra va Portugaliya alohida-alohida rivojlandilar. Navarrada fran-suzlar ta’siri juda kuchli edi. Atrofni tog‘lar o‘rab olgan bu kichik mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi sekinlik bilan bordi. Shu sababli XIII—XV asrlar davrida Navarra katta rol o‘ynagani yo‘q.

Atlantika okeani sohili bo‘ylab uzun tor chiziq bo‘lib joylashgan Portugaliya jadalroq rivojlandi. XV asrga kelganda Portugaliya katta dengiz flotiga ega bo‘lgan savdo-sotiq qiladigan mamlakatga aylandi. Yarim oroldagi mavrlar bilan olib borilgan kurash uni Shimoliy Afrikadagi arablar bilan urushlar qilishga ham tortdi. Portugaliyaliklarning Shimoliy Afrikadagi mulki bo‘lmish Seuta, keyin portugaliyaliklarning XV asrdagi geografik kashfiyotlarida katta rol o‘ynadi. Ammo O‘rta Yer dengizi sohilidagi mamlakatlar bilan, Angliya, Niderlandiya va boshqa mamlakatlar bilan zo‘r berib olib borilgan tashqi savdo-sotiq aloqalari Portugaliyani Pireneya yarim orolidagi boshqa davlatlardan ajratib qo‘ydi. Rekonkista Portugaliyani qo‘shti Kastiliya bilan bog‘lashi lozimdek ko‘rinsa-da, lekin Portugaliya o‘zining mustaqilligini saqlab keldi.

Kataloniya, Aragon, Leon va Kastiliya grafliklarining tashkil topishi. Buyuk Karl davrida Pireney yarim orolining shimoli-sharqida tuzilgan Ispan markasining asosini Kataloniya tashkil etgan. Shu hududda keyinchalik Barselona grafligi tashkil topib, shimoli-sharqidagi grafliklarni birlashtirdi. XI asr davomida esa Ispan markasi aholisi arablarga qarshi kurashib, janubga tomon siljib boradi.

Kataloniyaning hududiy shakllanishi XII asr o‘rtalarida yakun topadi. Tinimsiz urushlar, yangi hududlarni egallash davomida bo‘shab qolgan yerlarni kolonizatsiya qilish, yangi qishloqlar va qo‘rg‘onlar vujudga kelib, cherkov va dunyoviy zodagonlarning yirik yer-mulkleri ko‘payib boradi. Kataloniyada harbiy kolonizatsiya yakunlangandan so‘ng, dehqonlarning qaramligi kuchaya boshladi. XIII asr davomida Kataloniya dehqonlarining qaramligi qator qonunlar bilan mustahkamlandi. Dehqonlarning katta qismini remenslar (**qaram dehqonlar**) tashkil etib, o‘z yerlariga huquqlarini tasdiqlash uchun senyorlari tayinlagan to‘lov

(*remensa persona*) ni to‘lashlari shart bo‘lgan. Bu to‘lov Kataloniya dehqonlari hayotiga oid oltita tahqirli qoidadan biri edi.

Shuningdek, *kutusiya* (u dehqon xotinining bevafoligi uchun jazolanishi), *ekzorkiya* (dehqon farzandsiz vafot etsa, uning mulkini katta qismi senyorga o‘tishi), *intestiya* (dehqon yozma vasiyat qoldirmagan bo‘lsa, uning mulkidan bir qismi xo‘jayinga o‘tishi), *arsiya* (dehqon uyidan yong‘in chiqsa jarima to‘lashi), *firma di spoli* (dehqon nikohdan o‘tganida to‘laydigan solig‘i) kabi tartiblar qonunlashtirilgan.

Barselona X-XI asrlarda muhim hunarmandchilik va savdo markaziga aylandi. Shaharda XII asrdayoq dengiz qonunlari ishlab chiqilgan. Shahardagi sex tashkilotlari esa XII asrdan shakllana boshlab, XIV asrda ularning soni 71 taga yetgan. XIII asrda Barselonada temirdan turli buyumlar, zig‘irpoya, jun va ipak matolar, bochkalar, teri, shisha, to‘r va h.zolar tayyorlangan. Aragoniyada dvoryanlar hukmronlik qilardilar. Bu yerni ozod qilish dvoryanlar kuchi bilan amalga oshganligi uchun, barcha yerlar ular o‘rtasida taqsimlangan edi. Yerlarning bir qismi dindorlarga tekkan edi.

Aragon dastlab mustaqil graflik bo‘lsa-da, keyinchalik Navarra qirolligi tarkibiga o‘tadi. Aragon va Navarra qirolligi arablarga qarshi uzlucksiz kurashadi. Saragosa shahri (1018 yil) ozod etilganidan keyin, u qirollik poytaxtiga aylanadi. Aragonning janubdagи chegaralari Ebro daryosigacha cho‘zilib, ozod qilingan hududlarga aholi ko‘chirib kelingan. Aragon 1137 yili Kataloniya bilan birlashganidan keyin, dengizga chiqish imkoniyatigi ega bo‘lib, savdo aloqalari rivojlana boshladи. XIII asrning birinchi yarmida qishloq xo‘jaligi yuksak darajada rivojlangan Valensiya viloyati arablardan xalos etilib, u ham Aragonga qo‘sib olinadi.

Ular shunday huquqlarga ham ega edilarki, agar qirol unga yoqmasa, ular boshqa qirolning fuqaroligiga o‘tib ketishi mumkin edi, bulardan tashqari agar qirol dvoryanlar erkinliklarini cheklaydigan bo‘lsa, qirolni taxtdan tushirish huquqiga ham ega edilar.

XIV asrda Aragoniyada “buyuk suda” degan lavozim bo‘lib, shular rikos-ombressni yerdan mahrum qilish huquqiga ega edilar.

Dvoryanlarning ikkinchi tabaqasini infonsones tashkil qildi. Infonsonesga o‘rta dvoryanlar kirar edi. Bular birinchi tabaqa vakillariga qarindoshchilik bilan bog‘langan katta feodallarning kichik a’zolari edilar.

Uchinchi tabaqa kavaleros yoki idalgo (idalgo)- (*idalgo. o‘rta asrlarda Ispaniyadagi ritsarlarning mayda va o‘rta tabaqasi bo‘lib, ular XII asr oxirida paydo bo‘lgan*).

XIII asrda Aragoniyada umumtabaqaviy kengash-Kortes (*kortes-isp.qirol saroyi so‘zidan olingan, o‘rta asrlar davrida Pireney yarim oroli davlatlarida toifaviy vakillik organlari, dastlab 1137 yili Kastiliyada tilga olingan*). Kortes to‘rt tabaqaga bo‘lingan. Unda rikos-ombres alohida palatani tashkil qilgan. Ikkinci palatani o‘rta va mayda dvoryanlar tashkil qilgan. Uchinchi palatani ruhoniylar, to‘rtinchi palatani shaharliklar tashkil qilardi. To‘rtinchi palata vakillari kortesda ishtirok etish huquqini ancha keyin Leonda 1188 yil, Kataloniyada 1216 yil, Kastiliyada 1250 yil, Portugaliyada 1254 yil, Aragonda 1274 yildan boshlab oldilar.

1. Fernández Álvarez, Manuel. *España y los españoles en los tiempos modernos* (Spanish). [University of Salamanca](#), 1979 — 128 bet.
2. [↑ „Extension“](#) (en). pares.mcu.es (2015-yil 4-dekabr). Qaraldi: 2018-yil 12-iyun.
3. [↑ https://www.history.org/foundation/journal/spring13/spanish.cfm](https://www.history.org/foundation/journal/spring13/spanish.cfm)
4. [↑ „Spain profile“](#). *BBC News* (14-oktabr 2019-yil).
5. [↑ „The Spanish Habsburgs | Western Civilization“](#).
6. [↑ Cropsey, Seth. *Seablinness: How Political Neglect Is Choking American Seapower and What to Do About It*](#) (en). Encounter Books, 2017-08-29. [ISBN 9781594039164](#).
7. [↑ Tracy, James D.. *The Rise of Merchant Empires: Long-Distance Trade in the Early Modern World, 1350–1750*](#). Cambridge University Press, 1993 — 35 bet. [ISBN 978-0-521-45735-4](#).